

“UzGasTrade” AJ
Yagona aksiyadorning
2022 yil “30” sentabr dagi
5 sonli qaroriga

11-ILOVA

“TASDIQLANGAN”

“UzGasTrade” AJ
Yagona aksiyadorining
2022 yil “30” sentabr dagi
5 son qarori bilan

**“UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
YIRIK BITIMLARNI TUZISH TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

Toshkent – 2022 yil

MUNDARIJA:

1.	UMUMIY QOIDALAR.....	3
2.	JAMIYATNING YIRIK BITIMLARINI ANIQLASH VA O'RGANISH TARTIBI	3
3.	JAMIYATNING YIRIK BITIMLARINI TAYYORLASH, MA'QULLASH VA TUZISH TARTIBITAFTISH KOMISSIYANING HUQUQLARI VA VAKOLATLARI.....	7
4.	JAMIYATNING YIRIK BITIMLARNI TUZISH TARTIBIGA RIOYA ETILISHINI NAZORAT QILISH	9
5.	JAMIYATNING YIRIK BITIMLARI TO'G'RISIDAGI AXBOROTNI OSHKOR ETISH.....	9
6.	JAMIYATNING YIRIK BITIMLARIGA DOIR HUJJATLARNI SAQLASH.....	10
7.	JAVOBGARLIK.....	10
8.	YAKUNIY QOIDALAR.....	11

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu “UZGASTRIDE” AJning yirik bitimlarni to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun), boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, Korporativ boshqaruv Kodeksi (Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015 yil 31 dekabrda 9 sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan) tavsiyalari, “UZGASTRIDE” AJning (keyingi o‘rinlarda - Jamiyat) Ustavi va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Tartib Jamiyatning yirik bitimlarini aniqlash tartib-taomillariga, o‘rganishga, tayyorlashga, qarorlar qabul qilishga va tuzishga bo‘lgan asosiy talablarni belgilaydi.

3. Ushbu Tartib Jamiyatda, shu jumladan Jamiyatning yirik bitimlarini tuzishda ichki nazoratning samarali tizimini tashkil etish maqsadida ishlab chiqilgan.

4. Jamiyatning yirik bitimlarini tuzish Jamiyatning muhim korporativ harakatlari sirasiga kiradi, yirik bitimlarni tuzish qonun hujjatlari, Jamiyatning Ustavi va ichki hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshirilishi shart.

II. JAMIYATDA YIRIK BITIMLARINI ANIQLASH VA O‘RGANISH TARTIBI

5. Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 (o‘n besh) foizidan ortig‘ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlar bundan mustasno.

Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga va qoidalariga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi Ijroiya organining yirik bitimlarni mustaqil tuzishi uchun Jamiyatning joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitimlar ro‘yxatini aniqlaydi.

Jamiyatning yillik biznes-rejasini tayyorlashda Jamiyatning ushbu jarayonda ishtirok etadigan tuzilmaviy bo‘linmalari reja yilida tuzilishi rejalashtirilayotgan yirik bitimlar aniqlangan taqdirda, ushbu bitimlar to‘g‘risidagi axborotni ushbu bitimlar bo‘yicha o‘z vaqtida belgilangan tartibda qaror qabul qilish uchun Ijroiya organi rahbariga ma‘lum qilishadi.

6. Jamiyatning yirik bitimni tuzishida yirik bitim predmeti bo‘lgan mol-mulk Jamiyat tomonidan bozor qiymati bo‘yicha boshqa shaxsga beriladi.

7. Qonunga muvofiq “Jamiyatning yirik bitimi predmeti bo‘lgan mol-mulkning bozor qiymati deganda mol-mulkning eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, ushbu qiymat bo‘yicha mazkur mol-mulk ochiq bozorda bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo‘lgan holda o‘z manfaatlari yo‘lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladigan raqobat sharoitida boshqa shaxsga berilishi mumkin, bitim narxining baland-pastligida esa biror-bir favqulodda holatlar, shu jumladan, taraflardan birining ushbu bitimga qo‘shilish majburiyati aks etmaydi.”

Jamiyat mol-mulking bozor qiymatini aniqlash uchun bitimning taraflari tomonidan baholovchi tashkilot jalb etilishi mumkin.

8. Qonunga muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashi mol-mulkning bozor qiymatini aniqlashni tashkil etadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi Ijroiya organiga boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning bozor qiymatini belgilangan tartibda aniqlashni topshiradi.

9. Jamiyat tomonidan boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning bozor qiymati quyidagicha aniqlanishi mumkin:

yozma so'rov yuborish yo'li bilan birja kotirovkasi asosida;

baholovchi tashkilot bilan tegishli shartnoma tuzish yo'li bilan baholash asosida.

10. Agar aksiyalar va korporativ obligatsiyalar (portfel aktivlari) Jamiyatning yirik bitimi predmeti hisoblansa, Qonunga muvofiq "Qimmatli qog'ozning bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narx tushunilib, unga ko'ra mazkur qimmatli qog'oz ochiq bozorda bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda o'z manfaatlari yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladigan raqobat sharoitida boshqa shaxsga berilishi mumkin, bitim narxining baland-pastligida esa biror-bir favqulodda holatlar, shu jumladan, taraflardan birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmaydi.

Agar qimmatli qog'ozlar fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan bo'lsa, ularning birja kotirovkalari mazkur qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati deb e'tirof etiladi."

11. Jamiyat tomonidan boshqa shaxsga berilayotgan portfel qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati quyidagicha aniqlanishi mumkin:

fond birjasining kotirovkasi asosida;

baholash asosida.

12. Agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulk (ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, moddiy aktivlar va boshqalar)ning bozor qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan ortig'ini tashkil etsa, bunday bitim yirik deb hisoblanadi va u bo'yicha qaror Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

13. Jamiyat tomonidan olinayotgan mol-mulk (ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, moddiy aktivlar va boshqalar)ning qiymati normative-huquqiy hujjatlar asosida aniqlanadi.

14. Agar qimmatli qog'ozlar – aksiyalar, obligatsiyalar mol-mulk xarid qilish bo'yicha yirik bitimning predmeti hisoblansa, Jamiyat tomonidan olinayotgan qimmatli qog'ozlar qiymati Birja savdolari qoidalariga muvofiq fond birjasi savdolarida shakllangan narx bo'yicha belgilanadi.

15. Agar yirik bitim qarz, kredit, garov, kafillik hisoblansa, qarzni, kreditni, garovni yoki kafillikni ta'minlovchi mol-mulkning bozor qiymati aniqlanadi.

16. Jamiyat Ijroiya organining rahbari yirik bitimlar sirasiga kiradigan shartnomalarni aniqlash bo'yicha ishni tashkil etadi.

Jamiyatning kutilayotgan yirik bitimlarini aniqlash Jamiyat tomonidan tuziladigan shartnomalarning ekspertizasi natijasida amalga oshiriladi.

17. Jamiyat buxgalteriyasi har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 30 sanasidan kechiktirmay, Jamiyat sof aktivlarining balans qiymatini aniqlaydi va Jamiyat Ijroiya organi, Ichki audit xizmati, korporativ maslahatchi va Jamiyatning tuzilmaviy bo‘linmalari rahbarlari e‘tiboriga yetkazadi.

18. Jamiyat nomidan shartnomalarni tuzishga jalb etilgan Jamiyatning tuzilmaviy bo‘linmalari rahbarlari shartnomalarning ekspertizasini o‘tkazishda ushbu bitim yirik hisoblanishini tekshirishadi, buning uchun:

ushbu bitimni kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida tuziladigan bitim sifatida hisoblash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlashadi;

ushbu bitim Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish hisoblanishini aniqlashadi;

boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning balans va bozor qiymatini oxirgi hisobot sanasidagi (shartnomani tuzish sanasidagi) buxgalterlik hisoboti ma‘lumotlariga muvofiq yoki shartnoma loyihasiga muvofiq olinayotgan mol-mulkning qiymatini aniqlashadi;

boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning balans va bozor qiymati yoki olinayotgan mol-mulkning qiymati oxirgi hisobot sanasidagi (shartnomani tuzish sanasidagi) buxgalterlik hisoboti ma‘lumotlariga muvofiq Jamiyat sof aktivlari balans qiymatining 15 (o‘n besh) foizidan ortishi yoki ortmasligini aniqlashadi.

19. Kutilayotgan bitimda yirik bitim alomatlari aniqlanganda, Jamiyatning ekspertiza o‘tkazayotgan tuzilmaviy bo‘linmalari rahbarlari Jamiyat ijroiya organi rahbariga kutilayotgan bitim yirik bitimlar toifasiga kirishi to‘g‘risida bildirishnoma, shuningdek boshqaruvning qaysi organi ushbu yirik bitimni amalga oshirish huquqiga ega ekanligi to‘g‘risidagi xulosalarni taqdim etishadi.

20. Yirik bitim belgilariga ega kutilayotgan bitim kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida tuziladigan bitimlar sirasiga kirganligi yoki Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish hisoblanganligi hollarida, Jamiyatning tegishli tuzilmaviy bo‘linmasi bitim bo‘yicha hujjatlarni Jamiyat yuridik xizmatiga huquqiy ekspertiza o‘tkazish uchun taqdim etadi.

Jamiyat yuridik xizmati tomonidan yirik bitim belgilariga ega kutilayotgan bitim kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida tuziladigan bitimlar sirasiga kirganligi yoki Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish hisoblanganligi tasdiqlangan va Yuridik xizmat tomonidan tegishli xulosa taqdim etilgan taqdirda, Jamiyatning ijroiya organi rahbari ushbu bitimni tuzish to‘g‘risida mustaqil qaror qabul qiladi yoki yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi masalani Jamiyat Boshqaruvi muhokamasiga taqdim etadi.

21. Yirik bitim belgilariga ega kutilayotgan bitim Jamiyat Kuzatuv kengashi yoki Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori talab etiladigan bitimlar sirasiga kirsa, Jamiyatning tegishli tuzilmaviy bo‘linmasi bitim bo‘yicha hujjatlarni va bildirishnomani Jamiyat ijroiya organiga Ichki audit xizmat va korporativ maslahatchi bilan birgalikda o‘rganish uchun taqdim etadi.

22. Tegishli tuzilmaviy bo‘linma rahbarining yozma bildirishnomasida ko‘rsatilgan yirik bitim to‘g‘risidagi axborot Jamiyat ijroiya organi, Ichki audit xizmati va korporativ maslahatchi tomonidan o‘rganiladi.

23. Jamiyat ijroiya organi tomonidan yirik bitimlarni o‘rganish uchun Jamiyatning

kutilayotgan yirik bitimlarini o'rganish bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatuvchi komissiya tashkil etiladi.

Komissiya tarkibiga Jamiyatning quyidagi xodimlari kiritiladi:

Yuridik xizmat rahbari;

Bosh hisobchi;

vakolatli shaxs yoki Jamiyatning vakolatli tuzilmaviy bo'linmasi;

Jamiyatning tuzilmaviy bo'linmalari rahbarlari;

Ichki audit xizmati rahbari;

Korporativ maslahatchi.

Jamiyat ijroiya organi rahbarining qaroriga ko'ra ushbu bitimni o'rganishga Jamiyatning boshqa xodimlari, shuningdek Jamiyat tashqi auditor qo'shimcha ravishda jalb etilishi mumkin.

24. Komissiya quyidagi masalalarni o'rganadi:

bitim predmeti (mol-mulk tarkibi, mulkiy huquqlar, majburiyatlar va hokazolar);

bitim tomoni (tomonlari) hisoblanadigan shaxs (shaxslar);

ushbu kontragentning nima sababdan va qayerda tanlanganligi;

bitimda (agar mavjud bo'lsa) naf oluvchi (naf oluvchilar) hisoblanadigan shaxs (shaxslar);

bitimning qiymati kim tomonidan va qanday belgilanganligi;

bitim qiymatining mol-mulkning bozor qiymatiga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi;

mol-mulkning bozor qiymati qanday aniqlanganligi;

bitimning boshqa muhim shartlari (agar mavjud bo'lsa);

Jamiyat boshqaruvining qaysi organi kutilayotgan yirik bitimni ma'qullashi lozim;

boshqa masalalar.

25. Jamiyat ijroiya organi, Ichki audit xizmati va Jamiyatning korporativ maslahatchisi tomonidan kutilayotgan yirik bitimni o'rganish tegishli tuzilmaviy bo'linma rahbarining bildirishnomasi va Jamiyat yuridik xizmatining xulosasi olingandan keyin 3 (uch) ish kuni davomida amalga oshiriladi.

26. Jamiyat ijroiya organi, Ichki audit xizmati va korporativ maslahatchi tomonidan kutilayotgan yirik bitimni o'rganish natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va bitimni o'rganishda ishtirok etgan barcha shaxslar tomonidan imzolanadi. Bayonnomada bitimning yuridik, moliyaviy, texnik va boshqa muhim jihatlari va uning jamiyat faoliyatiga ta'sir ko'rsatish ehtimolligi ko'zda tutilishi zarur.

III. JAMIYATNING YIRIK BITIMLARINI TAYYORLASH, MA'QULLASH VA TUZISH TARTIBI

27. Jamiyat ijroiya organi Jamiyat Kuzatuv kengashi raisini Kuzatuv kengashi majlisini yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish zarurati to'g'risida xabardor qiladi.

28. Kuzatuv kengashi raisi qaroriga asosan Jamiyatning yirik bitimini ma'qullash bo'yicha tezkor qaror qabul qilish maqsadida Kuzatuv kengashining sirtqi majlisi ovoz berish byulletenlarini va bitim bo'yicha qo'shimcha zarur axborotni tarqatish yo'li bilan o'tkazilishi mumkin.

29. Ijroiya organi quyidagilarni tayyorlaydi va Jamiyat Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun olib chiqadi:

a) yirik bitimni ma'qullash to'g'risidagi masala, shu jumladan ushbu Tartibning 24 bandida ko'rsatilgan, shuningdek boshqa shaxsga berilayotgan yoki olinayotgan mol-mulkning qiymatini (pul qiymatini) uning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda, ma'qullash to'g'risidagi masalalar;

b) yirik bitimni ma'qullash to'g'risidagi qaror loyihasini va Kuzatuv kengashining a'zolariga asosli qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha axborotni tayyorlaydi.

Kuzatuv kengashiga va/yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan bitim bo'yicha qo'shimcha axborot o'z ichiga quyidagilarni oladi:

bitimni amalga oshirish zaruratining asoslanganligi va uning samaradorligi;

bitimning Jamiyat budjetida (Biznes-rejasida) nazarda tutilganligi to'g'risidagi ko'rsatma.

30. Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortig'ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno.

Qonunga muvofiq balans qiymati yoki olish qiymati ushbu bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan 50 foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan qabul qilinadi.

Kuzatuv kengashining ochiq majlisini o'tkazishda qaror majlisda hozir bo'lgan Kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Kuzatuv kengashining sirtqi majlisini o'tkazishda qaror Kuzatuv kengashining barcha amaldagi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Agar yirik bitimni amalga oshirish to'g'risidagi masala bo'yicha Jamiyat Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda Kuzatuv kengashining qarori bo'yicha yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqilishi mumkin.

31. Qonunga muvofiq balans qiymati yoki olish qiymati ushbu bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 50 (ellik) foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Ijroiya organi Jamiyat Kuzatuv kengashining raisini yirik bitimni ma'qullash to'g'risida qaror qabul qilish uchun Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish zarurati to'g'risida xabardor qiladi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib chiqadi va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Kuzatuv

kengashi ushbu yig'ilishning o'zida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga yirik bitimni tuzish maqsadga muvofiqligi yoki maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida tavsiyalar beradi.

Yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

32. Yirik bitim Jamiyat kuzatuv kengashi yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilganidan va tegishli bayonnoma imzolanganidan keyin Jamiyatning ijroiya organi tomonidan amalga oshiriladi.

33. Yirik bitim Jamiyat affillangan shaxslarining manfaatdorligi mavjud bo'lgan bitim hisoblangan taqdirda, ushbu bitimni tuzishda affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish tartibi to'g'risidagi nizom ham qo'llaniladi.

Agar bir vaqtning o'zida Jamiyat affillangan shaxsining manfaatdorligi mavjud bo'lgan bitim hisoblangan yirik bitim summasi Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan 50 foizigachasini tashkil etsa, qaror Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Bir vaqtning o'zida Jamiyat affillangan shaxsining manfaatdorligi mavjud bo'lgan bitim hisoblangan yirik bitim summasi Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan 50 foizigachasini tashkil etgan va bunda Kuzatuv kengashining ikki a'zosi bitimdan manfaatdor hisoblangan taqdirda, qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Agar bir vaqtning o'zida Jamiyat affillangan shaxsining manfaatdorligi mavjud bo'lgan bitim hisoblangan yirik bitim summasi Jamiyat sof aktivlari miqdorining 50 (ellik) foizidan ortig'ini tashkil etsa, qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

34. Qonun talablari buzilgan holda tuzilgan yirik bitim sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

IV. JAMIYATNING YIRIK BITIMLARNI TUZISH TARTIBIGA

RIOYA ETILISHINI NAZORAT QILISH

35. Jamiyatning yirik bitimlarni tuzish tartibiga rioya etilishini nazorat qilish Ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

36. Jamiyat ichki audit xizmati Jamiyatning moliya-xo'jalik operatsiyalarini muntazam ravishda tekshirishda va Jamiyatning kutilayotgan yirik bitimini Jamiyat ijroiya organi bilan birgalikda o'rganishda Jamiyatning yirik bitimlarni tuzish tartibiga rioya etilishi bo'yicha joriy nazoratni amalga oshiradi.

Ichki audit xizmati tomonidan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Tartibda belgilangan tartibda ularning ma'qullashisiz yirik bitimlarni tuzish faktlari aniqlanganda, Ichki audit xizmati rahbari aniqlangan faktlar haqida Kuzatuv kengashiga, ma'lumot uchun Ijroiya organi rahbariga hisobot beradi.

Jamiyatning boshqaruv organlari xilof ish tutganlarga nisbatan tegishli choralar ko'radi.

37. Jamiyat Ichki audit xizmati Jamiyatning yirik bitimlarni tuzish tartibiga rioya etilishini kelgusida nazorat qilinishini amalga oshiradi.

Ichki audit xizmati hisobot choragida Jamiyat tomonidan tuzilgan shartnomalarni har chorakda o'rganadi, hisobot choragida Jamiyatda yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va Jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni

tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani tayyorlaydi.

Ichki audit xizmatining ushbu xulosasi har chorakda Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqiladi.

Ichki audit xizmati tomonidan Jamiyatning bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishni amalga oshirishda Ichki audit xizmati shuningdek, tekshirilayotgan davrda Jamiyatda yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va Jamiyat ichki hujjatlarining (shu jumladan, ushbu Tartibning) bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani tayyorlaydi.

Ichki audit xizmatining yil yakunlari bo'yicha Jamiyatning yirik bitimlari to'g'risidagi xulosasi Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida eshitiladi.

Ichki audit xizmatining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishning boshqa davridagi yirik bitimlar to'g'risidagi xulosasi Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqiladi.

V. JAMIYATNING YIRIK BITIMLARI TO'G'RISIDAGI AXBOROTNI OSHKOR ETISH

38. Jamiyat yirik bitimlar to'g'risidagi axborotni:

yillik hisobotda;

muhim faktlarda oshkor etadi.

39. Jamiyatning hisobot davridagi yirik bitimlari to'g'risidagi axborot, shu jumladan bitim predmeti va summasi, bitimning kontragenti va yirik bitimda emitentning kim (begonalashtiruvchi yoki oluvchi) ekanligi to'g'risidagi axborot ushbu Tartibning 1 ilovasiga asosan yillik hisobotning bir qismi hisoblanadi.

Jamiyat yillik hisobotni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida va Jamiyatning rasmiy veb-saytida Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilgandan keyin 2 (ikki) hafta davomida joylashtirish yo'li bilan oshkor etishi shart.

40. Jamiyat yirik bitim tuzishda bu haqdagi axborotni ushbu Tartibning 2 ilovasiga muvofiq shakldagi 20 sonli "Emitent tomonidan yirik bitim tuzilishi" muhim faktida oshkor etadi.

20-sonli "Emitent tomonidan yirik bitim tuzilishi" muhim fakti haqidagi xabar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida va Jamiyatning rasmiy veb-saytida u yuz bergan sanadan e'tiboran 2 (ikki) ish kuni ichida oshkor etiladi.

Jamiyat tomonidan yirik bitim tuzilgan sana muhim fakt yuz bergan vaqt bo'lib hisoblanadi.

41. Jamiyat aksiyadorlarining talabiga ko'ra 3 (uch) ish kunida yirik bitim to'g'risidagi tegishli axborotni ularga taqdim etishi shart.

42. Jamiyat qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organining talabiga ko'ra yirik bitimlar to'g'risidagi axborotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etadi.

VI. JAMIYATNING YIRIK BITIMLARIGA DOIR HUJJATLARNI SAQLASH

43. Jamiyatning yirik bitimlariga doir hujjatlar Jamiyatning ichki hujjatlari hisoblanadi va Jamiyatning joylashgan yerida saqlanadi.

Jamiyatning yirik bitimlariga doir hujjatlar ular tuzilgan moliyaviy yil tugagandan keyin Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishni yakunlash sharti bilan 5 (besh) yil davomida saqlanadi.

44. Jamiyatning yirik bitimlariga doir hujjatlar maxfiy axborot hisoblanadi.

Jamiyatning yirik bitimlariga doir axborot va hujjatlar Jamiyat aksiyadorining talabiga ko'ra Qonunda belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Jamiyatning yirik bitimlariga doir hujjatlar vakolatli davlat organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

VII. JAVOBGARLIK

45. Jamiyatning vakolatli shaxsi yoki vakolatli tuzilmaviy bo'linmasi Jamiyatning yirik bitimlarini hisobga olishni tashkil etish va yirik bitimlar haqidagi axborotni o'z vaqtida oshkor etish bo'yicha javobgar hisoblanadi.

46. Yirik bitimni o'rganishni amalga oshirgan shaxslar bitim bo'yicha xulosa va yakunlarning ishonchliligi uchun javobgar bo'ladi.

47. Jamiyat ijroiya organi yirik bitimlarni tuzish tartibiga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Shuningdek, Jamiyat Kuzatuv kengashi ham yirik bitimlarni tuzish tartibiga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

48. Jamiyat Jamiyatning yirik bitimlari haqidagi axborotning o'z vaqtida oshkor etilishi uchun qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

VIII. YAKUNIY QOIDALAR

49. Ushbu Tartib Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ushbu Tartibni tasdiqlash bo'yicha qarori umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

50. Ushbu Tartibga qonun hujjatlari o'zgartirilganligi, Jamiyat Ustaviga, Jamiyatning ichki hujjatlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilganligi munosabati bilan va boshqa hollarda o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Ushbu Tartibga kiritilgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ushbu Tartibga kiritilgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarni tasdiqlash bo'yicha qarori umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

51. Agar ushbu Tartibning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid kelgan taqdirda, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi hamda ushbu Tartibga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, bu

bandlar orqali tartibga solinadigan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va/yoki Jamiyat Ustavi me'yorlari qo'llaniladi.

1-Ilova

HISOBOT YILIDA TUZILGAN YIRIK BITIMLAR RO'YXATI					
№	Bitim tuzilgan sana	Kontragentning F.I.SH. yoki to'liq nomi	Bitim predmeti	Summa	Emitent bitim bo'yicha kim hisoblanadi (tovar va xizmatlarni oluvchi/begonalashtiruvchi)
14.					

2-Ilova

EMITENTNING NOMI	
1.	To'liq:
	Qisqartirilgani:
	Birja tikerining nomi:*
ALOQA MA'LUMOTLARI	
2.	Joylashgan yeri:
	Pochta manzili:
	Elektron pochta manzili:*

	Rasmiy veb-sayt:*	
	MUHIM FAKT TO'G'RISIDA	
	Muhim fakt raqami:	20
	Muhim faktning nomi:	Emitent tomonidan yirik bitim tuzilishi
	Kontragentning F.I.SH. yoki to'liq nomi:	
	Kontragentning joylashgan yeri (pochta manzili):	
	Emitentning bitim bo'yicha qaror qabul qilgan organi:	
	Qaror qabul qilingan sana:	
3.	Emitent sof aktivlarining bitim tuziladigan sanadan oldingi chorak yakunidagi qiymati (ming so'mda):	
	Bitim summasi (so'mda):	
	Bitimning emitent sof aktivlaridagi miqdori (%da)	
	Bitim tuzilgan sana:	
	Bitim turi:	
	Bitim predmeti:	
	Bitim bo'yicha emitent kim hisoblanadi:	Oluvchi
		Begonalashtiruvchi

Ijroiya organi rahbarining F.I.Sh.: _____

Bosh buxgalterning F.I.Sh.: _____

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.Sh.: _____: